KASBIY YO`NALGANLIGIGA OID ILMIY YONDASHUVLAR

Naxalboyev Mehriddin Ergash o‘g‘li
Jamoat xavfsizligi universiteti
70310301 Psixalogiya mutaxasisligi magistranti.
naxalboyevmehriddin@gmail.com

Annotatsiya Kasbiy yo‘nalganlik shaxsning o‘z qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va ijtimoiy ehtiyojlari asosida kasb tanlash va professional faoliyatga tayyorgarlik ko‘rish jarayonini ifodalaydi. Ushbu jarayon psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarida keng o‘rganilgan bo‘lib, turli ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Kasbiy yo‘nalganlikni tushuntirishda shaxsiy-differensial yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv, motivatsion yondashuv hamda ijtimoiy-kognitiv nazariyalar muhim o‘rin tutadi. Ushbu yondashuvlar kasb tanlashning ichki (qiziqish, motiv, qobiliyat) va tashqi (ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit, ta’lim tizimi) omillarini yoritib beradi. Kasbiy yo‘nalganlikni shakllantirish shaxsning kasbiy o‘zini anglashini rivojlantiradi, mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtiradi hamda kasbiy barqarorlikni ta’minlaydi. Zamonaviy ilmiy qarashlarda kasbiy yo‘nalganlik uzluksiz jarayon sifatida talqin qilinadi va u inson hayotining turli bosqichlarida o‘zgarib borishi ta’kidlanadi. Shu bois kasbiy yo‘nalganlikni to‘g‘ri shakllantirish ta’lim tizimida muhim pedagogik-psixologik vazifa hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: Kasbiy yo‘nalganlik, kasb tanlash, motivatsiya, shaxsiy qobiliyat, kasbiy o‘zini anglash, ijtimoiy omillar, professional rivojlanish, psixologik yondashuv, mehnat bozori, kasbiy moslashuv.

Kasbiy faoliyatni psixologik - pedagogik tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etishda turli xil yondashuvlar, ilmiy xulosalar va maxsus metodologiya mavjud bo‘lib, ular kasb tanlash, kasbiy ta'lim, kasbiy ma'rifat, kasbiy maslahat, kasbga yo‘naltirish, kasbiy rivojlanish haqida qarashlarni o‘zida mujassamlashtirgan (E.F.Zeer, E.A.Klimov,

I.M.Kondakov, V.V.Suvorova, T.V.Kudryavtsev, A.K.Markova). Bu doiradagi ilmiy tadqiqotlarning ko‘pchiligida kasbiy rivojlanish uzoq muddatli va bir necha bosqichli jarayon ekanligi qayd qilinadi. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda har bir bosqich mehnat faoliyatini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi psixik yangilanishga ega, degan mulohaza mujassamlashgan.

Kasbiy kamolotni belgilovchi asosiy psixologik omillar sifatida shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga alohida urg‘u beriladi. Tadqiqotchi L.A.Yasyukova [1]: "kasbiy qobiliyatlarning to‘laqonli safarbar qilinishi shaxsning boshqa xususiyatlari bilan integrallashganda o‘z natijasini beradi", deb hisoblaydi.

Shaxs sifatlarining ijobiy o‘zaro aloqadorlik munosabatlarini kasbiy faoliyat uchun zarur malakalarning muvaffaqiyatli rivojlanishi, kasbiy Kamolot qobiliyatlarining natijasi sifatida idrok qilinadi. Kasbiy Kamolot jarayonida kasbiy qobiliyatlarning shakllanishini shaxsning individual xususiyatlari kompleksi.

Kasbiy faoliyatga o‘tish bir qator bosqichli jarayon bo‘lib, ta'limdan mustaqil kasbiy faoliyatga o‘tish har bir insonning e'tiborga molik jihati hisoblanadi.

Maktab bitiruvchilarining kelajak hayot rejalarini o‘rganish yuzasidan olib borilgan izlanishlarda (aynan qaerda o‘qish va ishlash hohishini o‘rganish yuzasidan) o‘ziga xos natijalar olindi. Ularda kasb tanlashda qiziqishlar asosiy o‘rin tutishi qayd etilgan (biz ham talabalarning kasbiy shakllanishi va kasbga mutanosibligini tadqiq etish jarayonida kasbiy qiziqishlar masalasiga to‘xtalib o‘tamiz). Bu holat oliy o‘quv yurti bitiruvchilarida amaliy xususiyat kasb etadi.

Shunday qilib, kasbiy reja, istiqbol va kasbiy qadriyatlar mutaxassis sifatida ishlashning muhim sharti ekanligi aniqlangan. Bu nuqtai nazarga qo‘shimcha aniqlik kiritishni va uning milliy psixologik tomonlarini o‘z tadqiqotimizda ko‘rib chiqamiz. Tadqiqotlarda aniqlanishicha, yaxshi mutaxassis uchun quyidagi sifatlar bo‘lishi, yani o‘zini kamol toptirishga intilish (muammoni qo‘ya olish, ishga qiziqish

[1] Yasyukova L. A. 3-6 sinflarida ta'lim muammolarini prognoz qilish va oldini olish. Sankt-Peterburg.: Imaton. 2001. 192 p.14.

bilan yondoshish, ichki tayyorgarlik), amaliy tajribaga ega bo‘lish, individual-psixologik xususiyatlarining mazkur kasb talablariga mosligi muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy talablarning o‘sishi kasbning va mutaxassislarning jamiyat hayotidagi o‘rnini belgilaydi. Shu sababli ham bugungi kunda "ahamiyatga ega" va "o‘z ahamiyatini yo‘qotgan kasb" atamasini ishlatishga to‘g‘ri kelmoqda. Yoshlarning kasb tanlashida ham xuddi shu tarzdagi nuqtai nazar va dunyoqarash etakchilik qilib qolmoqda. Bizning tadqiqotimiz ham ushbu talablarni inobatga olgan holda kasb tanlashdagi nomutanosibliklarning sabablarini aniqlash va uning oldini olish uchun tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz.

O‘tgan asrning 80 - yilarida Rossiya mintaqasida "xususiy qo‘riqchilar" deb atalgan kasb egalarining paydo bo‘lishi natijasida yangi kasb dunyoga keldi va mazkur kasb yuzasidan ma'lum talablar ishlab chiqildi. V.A.Tolochyok, V.E.Zajeviskiy, O.V.Ojisenkoning izlanishlarida jamiyat rivojining o‘tish davrida ommaviy ishsizlikning ortishi, ijtimoiy-demografik va psixologik jihatdan nomzodlarning xilma-xil bo‘lishi, yuqori darajadagi ishchi kuchiga talabning mavjudligi (tajriba va kasbiy tayyorgarlik hujjatiga egalik) mutaxassis kasbiy faoliyatiga yuqori talablar qo‘yishi ta'kidlanadi.

F.S.Ismagilova mutaxassis sifatida shaklanishda kasbiy tajribaning ahamiyatini e'tirof etgan holda, bir qator ijobiy mulohazalarni ilgari suradi. Uning fikricha, "mutaxassisning kasbiy tajribasi hozirgi kundagi yangi texnologik o‘zgarishlarga xohish sezib, eskilari bilan o‘rnini almashtirishi bilan xarakterlanadi. Bu muttasil yuz beradigan va amaliyotni taqozo etuvchi muammolardandir. Kasbiy tajriba mutaxassisni ma'lum bir kasb uchun saralashda foydalaniladigan mezon hisoblanadi. Biroq, muhimi shaxsning o‘zi. Chunki o‘z ish o‘rnini yo‘qotishi yoki uning kafolatlovchisi ham shaxsning o‘zidir".

Bugungi kun texnologiyasidagi jadal o‘zgarishlar kasbiy mehnat mazmunini tubdan

o‘zgartirib yuboradi va kasbiy ongining o‘tmishi, buguni hamda kelajagi o‘rtasidagi munosabatlar ildiziga yangicha nazar solishga da'vat etadi.

E'tibor beradigan bo‘lsak, bugungi sharoitda kasbiy bilim mutaxassisning kasbiy faoliyati yakunlanguniga qadar tez eskirib bormoqda. Shu bois ham talabalarning o‘zlariga munosib kasb tanlashlarida bunday holatlarning ta'siri bor. Bu esa talabalarning kasbni to‘g‘ri tanlaganliklari, ularning motiv, qiziqish, shaxs yo‘nalganligi, kasbiy tayyorgarligi va kasbiy ustanovkalaridagi o‘zgarishlarni texnologik o‘zgarishlarga hamohang ravishda o‘rganib borishga zaruratni yuzaga keltiradi.

Kasbni egallayotgan bo‘lg‘usi mutaxassis kasbiy faoliyat uchun qanday zaruriy jihatlar kerak ekanligini to‘liq tasavvur qilmasligi tabiiy. Bu esa bo‘lg‘usi mutaxassislarda kasbiy tasavvurlar shakllanishi xususiyatlarini o‘rganish zaruriyatini vujudga keltiradi.

K.K.Platonov tajribani bilim, ko‘nikma, malakalar va odatlarning yig‘indisi sifatida ta'riflaydi. Boshqa tadqiqotchilar tajribani vaqtli xususiyatli va fazoviy tuzilmadan iborat operasional tizim sifatida tushuntiradilar (B.G.Anan'ev, V.Yu.Artemeva, A.A.Smirnov, G.L.Ilin, E.A.Klimov, V.A.Tolochyok va boshqalar). Ulardan farqli o‘laroq,

A.A.Kronik tajriba voqealar yoki insonning "texnik" hayotiy to‘planmasidan iborat, deb ta'riflaydi. Shuni unutmaslik lozimki, yuqoridagi yondashuvlarda tajribali, o‘z kasbining egasi bo‘lgan mutaxassis kerakli bilim va ko‘nikmani egallamagan xodimdan ajralib turishi ta'kidlanadi.

Shaxsning tajribaga ega bo‘lishi kasbiy faoliyatida ma'lum tizim hosil qiladi, uning sub'ektiv xususiyatlari tabiatining taqdimoti va vakolatini belgilaydi.

Xorijiy manbalarda ham insonning kasbdagi faoliyati va xulq-atvori mezoni o‘ziga xos holda belgilanib, "kasb to‘qimasi" yoki "mental xarita" deb atalgan. “Mental xarita” - kasbiy faoliyat maydonining mutaxassis joylashishi mumkin bo‘lgan ichki olami hisoblanadi. Kasbiy faoliyat maydoni tarkibidan kasbiy sohadagi anchagina barqaror

ta'lim, kasbning tavsiyanomasi, uning qo‘llanish sohasi, aniq ishchi o‘rniga nisbatan yashovchanligi o‘rin olgan.

K.Farrenning qarashlariga tayanib aytish mumkinki, talabalar mutaxassis sifatida shakllanishi davridayoq yashovchanlik ko‘rsatkichlaridan boxabar bo‘lishlari muhimdir. Uning fikricha, yashovchanlik ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: shaxsning yashovchanligi va kasbning yashovchanligi. Olim shaxs yashovchanlik sifatlariga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritadi:

1. Shaxs xususiyatlariga munosib kasb tanlash.
2. Bajarayotgan ishga qo‘yilgan talablarga yuqori darajada tayyorlik.
3. Hayoti davomida talim olish va o‘rganishga tayyorlik.
4. Madaniyatliligi, o‘zga kishilar qadr-qimmatini, farqlarini qabul qila bilish.
5. Kompyuter va axborot texnologiyalaridan foydalanishni bilish.
6. Bir necha sohalarda kasbiy mahoratni namoyish qila olishi.
7. Yangi loyihalar taqdim qilish tashabbusiga ega bo‘lish.
8. Ishda hamkasblar bilan hamkorlikda ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

K.Farren kasbning yashovchanlik ko‘rsatkichlariga quyidagilarni kiritadi:

1. Kasbning tashkilot maqsadlari bilan chambarchas bog‘liqligi.
2. Boshqa muassasa va ishlab chiqarish sohalari bilan uyg‘unlashish imkoniyati.
3. Boshqa kasblarda o‘z kompetentliligi va qobiliyatlaridan foydalanish imkoniyati.
4. Shaxsiy va moliyaviy taminlanganlik.
5. Kasb bo‘yicha shaxslar uyushmasining mavjudligi.
6. Mahoratga etaklovchi bilimga egalik.
7. Yoshidan qati nazar kasbiy muvaffaqiyatlarda mustaqil bo‘lish.

Shuningdek, yuqoridagi ikkita yashovchanlik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda quyidagi ko‘rsatkichlarni ham keltirib o‘tish joiz: tanlangan ishlab chiqarish sohasining "yashovchanligi", "tashkilotning yashovchanligi", "ishchi o‘rnining yashovchanligi". Bundan tashqari, kasbiy rivojlanish nazariyalari borasidagi tahlillarimiz xorijiy

psixologiyada metodologik asos sifatida xizmat qiluvchi kontsepsiyalarni e'tirof etishimizga olib keldi.

Xulosa: Kasbiy yo‘nalganlikka oid ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, kasb tanlash jarayoni faqatgina shaxsning xohishiga emas, balki uning qobiliyatlari, motivlari, qiziqishlari hamda ijtimoiy muhit ta’siriga ham bog‘liq murakkab psixologik jarayon hisoblanadi. Turli ilmiy nazariyalar kasbiy yo‘nalganlikni turlicha talqin etsa-da, ularning barchasi shaxsning kasbiy rivojlanishi va o‘zini anglash jarayonini markazga qo‘yadi. Kasbiy yo‘nalganlikning to‘g‘ri shakllanishi insonning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati, mehnatga moslashuvi va jamiyatda o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, ta’lim tizimida kasbiy yo‘naltirish ishlarini kuchaytirish, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularga to‘g‘ri kasb tanlashda ilmiy asoslangan yordam ko‘rsatish zarur. Umuman olganda, kasbiy yo‘nalganlikni rivojlantirish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ham muhim omil bo‘lib, u malakali kadrlar tayyorlash va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.